

TEKNOLOGIYA DARSLARIDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH

Dotsenti Dadayev G.T

Nizomiy nomidagi O'zMPU.

Annotatsiya

Ushbu maqolada texnologiya darslarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini ijodiy loyiha misolida qanday rivojlantirish mumkinligi bayon etilgan. Kreativ qobiliyat nima uchun kerakligi, jamoadagi muhit qanday bo'lishi, nimalarga e'tibor berish, o'quvchilar bilan qanday munosabatda bo'lish kerakligi va qiyinchiliklarni yengish usullari tavsiflangan. Shuningdek, ijodiy loyihaning asosiy bosqichlari: g'oyani yaratish, uni buyum ko'rinishida amalga oshirish, o'tilgan materialni mustahkamla

Tayanch so'zlar: texnologiya darsi, kreativlik, ijodiy qobiliyat, ijodiy loyiha

Annotation

This article describes how you can develop the creative abilities of students in technology lessons on the example of a creative project. It describes why we need creative abilities at all, gives recommendations, what should be the situation in the team, what to look for, how to behave with students, methods for overcoming difficulties. It also discusses the main stages of a creative project: the creation of an idea, its realization in the form of a product, the consolidation of the material studied; what methods can be applied on each of them.

Keywords: technology lesson, creativity, creative abilities, creative project.

Bugungi kunda ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri insonni nafaqat o'qitish va bilim berish, balki unda ijodiy tafakkurni rivojlantirish, shu bilimlarni qo'llashni o'rgatishdir. Bundan tashqari, ijodiy qobiliyatga ega bo'lgan odamlar hayotda o'z o'rnini osonroq topadilar. Ular tashabbuskor, tadbirkor mutaxassis bo'lib yetishadi, ishlab chiqarishda, ilm-fanda yoki tadbirkorlikda yuqori lavozimlarni egallaydi, jamiyatga ko'proq samara keltiradi. Bularning hammasi

yaxshi, lekin bu yerda boshqa savol tug'iladi. Agar bilimlarni shunchaki "yodlash" mumkin bo'lsa, ularni amalda qo'llash qobiliyati haqida nima deyish mumkin? O'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish uchun qanday metodlarni qo'llash kerak? Bu vazifani texnologiya darslarida amalga oshiriladi. Ta'limni boshlashdan oldin iqtidorsiz bolalar yo'qligini, o'zlarining kuchli tomonlarini topa olmaganlari borligini va ularga shularni aniqlashga yordam berish kerakligini yodda tutish lozim. Shuning uchun ham o'quvchilarga o'z ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishni xohlaydigan muhitni yaratish muhimdir. Birinchidan, ularga o'z g'oyalarini amalga oshirishi uchun sharoit yaratish kerak. Maktablarda ijodkorlik uchun barcha zarur vositalar bilan jihozlangan texnologiya xonasi bo'lishi lozim. O'quvchilar o'zining pazandachilik retseptini amalga oshira olmasligiga duch kelgan vaziyat bo'lmasligi, pichoqlar, sanchqilar, qoshiqlar, likopchalar, krujkalar, kesish taxtalari va boshqa anjomlar yetarli bo'lishi va ularning barchasi soz holatda bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, jamoada do'stona muhit bo'lishi kerak. Har qanday ijodiy tashabbusni, hech narsa o'ziga nisbatan tanqidchalik barbod qilmaydi. Shuning uchun jamoadagi har qanday nizolarni aniqlay olish va ularning oldini olish juda muhimdir. Bundan tashqari, barcha o'quvchilarning o'z-o'ziga ishonchiga ega emas va o'z g'oyalarini birdaniga amalga oshira olmaydi. Ba'zilar kulgiga qolishdan yoki haqoratlanishdan qo'rqishadi. Bunday o'quvchini o'z vaqtida aniqlash va unga yordam berish, tashqi xavf-xatarlardan himoya qilish muhimdir. Ba'zan ruhlantiruvchi nutq yordam beradi, ba'zan uni shovqin-suron qilayotgan sinfdoshlaridan uzoqroq, xilvatroq joyga ko'chirib o'tkazish kifoya. Lekin jamoaga faqat o'quvchilargina emas, balki o'qituvchining o'zi ham nifoq solishi mumkin. Barcha o'quvchilarga bir xil munosabatda bo'lish, ular orasida erkato'y yoki nazoratdan chetda qolishlarni ko'paytirmaslik kerak. Ishlarni iloji boricha kamroq tanqid qilishga, bu bilan o'quvchining ichki kayfiyatini buzmaslikka harakat qilish.

Ijodning hamma ko'rinishlari ham bizga ma'qul kelavermaydi. Lekin bu ularning yashashga haqqi yo'q degani emas. Shu sababli, olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ijod ishlariga bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lish muhimdir.

Uchinchidan, o'qituvchining o'zi. U nafaqat ustoz va asbob-uskunalaridan foydalanish imkoniyati, balki namuna ham bo'lishi kerak. O'qituvchi ma'lumotlarni savodli va qiziqarli tarzda taqdim eta olishi, loyihalari kreativligi bilan ajralib turarishi va u bilan o'quvchilar faxrlanishi kerak. Ijodiy g'oyalarni

yarata oladigan va ularni hayotga tatbiq etishga yordam beradigan haqiqiy texnologiya o'qituvchisi aynan shunday bo'lishi kerak.

Shunday qilib, zarur sharoit yaratildi, endi nima bo'ladi? Keyin esa ijod qilishni boshlash kerak. Bu yerda ijodiy loyiha yaratish juda mos keladi. Uning mohiyati biror mavzuda mahsulot yaratishdan iborat. Bu oddiy tuyulsa-da, aslida biroz murakkabroq. Dastlab mavzuni aniqlab olish kerak. U iloji boricha ko'proq o'quvchilarni qiziqtirishi kerak. Bu yerda bizga kreativ g'oyalarni yaratish usullari yordam beradi.

Ulardan birinchisi - yaxshi ma'lum bo'lgan aqliy hujum. Uning o'ziga xosligi shundaki, jamoadagi har qanday ishtirokchi, u qanchalik bema'ni bo'lmasin, g'oya taklif qilishi mumkin. So'ngra barcha g'oyalar yozib olinadi va eng yaxshisiga ovoz beriladi. Shunday qilib, guruh ko'pchilikni qoniqtiradigan g'oyani tanlaydi. Aqliy hujum paytida g'oyalarni tanqid qilmaslik va tafsilotlarga chuqurlashmaslik muhimdir. Bu yerda sifat emas, miqdor muhim.

Ikkinchisi - g'oyalar konferensiyasi. Uning mohiyati shundan iboratki, har kim o'z g'oyasini aytishi mumkin, qolganlar esa undan ijobiy tomonlarni izlaydilar. Ushbu usulning o'ziga xosligi shundaki, faqat ijobiy tanqidga ruxsat beriladi, shuning uchun uni qo'llashdan oldin jamoadagi vaziyatni baholash kerak. Agar sinfda boshqalarni tanqid qilishni yaxshi ko'radigan "bilimdonlar" yoki shunchaki hulqi salbiy, tajovuzkor o'quvchilar bo'lsa, bu usulni qo'llashdan tiyilish kerak. Agar sinf ahil bo'lsa va hamma boshqalarning g'oyalariga xotirjam munosabatda bo'la olsa, g'oyalar konferensiyasi yordamida ijodiy loyiha uchun qiziqarli mavzuni osongina o'ylab topish mumkin.

Uchinchi usul - o'quvchilarga mavzu tanlash imkoniyatini berish. Bu yerda asosiy narsa o'qituvchining ijodiy qobiliyati va sinf uchun qanday mavzular qiziqarli bo'lishini tushunish qobiliyatidir. Ushbu usulni qo'llashda o'quvchilarga taklif etilgan g'oyalarning birortasi ham iloji boricha yoqmaydigan vaziyatlardan qochishga harakat qilish kerak.

Nihoyat, tayyor buyumlarni ko'rsatib, o'quvchilarga shunga o'xshash biror narsa yasashni yoki ularni qandaydir tarzda yaxshilashni taklif qilish mumkin. Bu yerda o'quvchining ko'nikma darajasiga, bunga kuchlari yetishiga e'tibor qaratish muhimdir.

Mavzu tanlandi, endi keyingi bandga - g'oyalarni hayotga tatbiq etishga o'tish kerak. Bu yerda ayniqsa e'tiborli bo'lish kerak, chunki bir vaqtning o'zida bir nechta xavf mavjud.

Birinchidan, xavfsizlik texnikasi. Ovqat pishirishdan oldin har safar o'quvchilarga tushuntirib berish lozim. Ko'pchilik o'quvchilar unga rioya qilmaydilar, pichoqlar yoki boshqa o'tkir narsalar bilan o'ynaydilar. Shuning uchun jamoadagi nafaqat hissiy muhitni, balki jismoniy xavfsizlikni ham nazorat qilish muhimdir.

Ikkinchidan, o'quvchilarning emotsional holati. Bu yerda, yuqorida aytganimizdek, ko'plab xavotirlar mavjud. Agar o'quvchi loyihani amalga oshirish paytida qiyinchilikka duch kelsa, unga yordam berish kerak. Masalan, tayyor variantlarni ko'rsatish, ulardan nimanidir olishni taklif qilish yoki uning mahsulotiga yana nimalar kiritish mumkinligi haqida turli g'oyalar berish. Tanqiddan qochishga harakat qilish muhim, chunki u o'quvchini bo'g'ib qo'yishi yoki motivatsiyani yo'q qilishi mumkin. O'rdakcha usulini qo'llash mumkin. Agar bolada biror narsa o'xshamayotgan bo'lsa, siz uning uchun o'ziga xos stol o'rdakchasiga aylanishingiz mumkin, u o'z muammosining mohiyatini, yechim kalitini bayon qiladi. O'quvchi bilan u nima qilayotganligi haqida shunchaki suhbatlashish ham mumkin. Undan o'z loyihasiga nima qiziqtirganini, bu kimga kerak bo'lishi mumkinligini aytib berishini so'rang. Iloji boricha ko'proq yo'naltiruvchi savollar bering, chunki ularga berilgan javoblar yangi g'oyalar berishi va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam berishi mumkin. Shuningdek, ijodiy muhitni yaratish uchun kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'tarish choralari ko'rish lozim.

O'qituvchi sezgir kuzatuvchi bo'lishi va ijodiy loyiha yaratish jarayoniga iloji boricha kamroq aralashishga harakat qilishi, faqat onda-sonda o'zining ko'rinmas qo'li bilan o'quvchilarni kerakli tomonga yo'naltirib turishi lozim.

Darsdan so'ng ma'lumotlarni mustahkamlash lozim. O'quvchilarga xavfsizlik texnikasi haqida eslatib, uyda bajarish uchun loyihalarni qayta ishlashga berish mumkin; mustaqil ravishda shunga o'xshash biror narsa qilishni taklif qilish mumkin. Masalan, ota-onangiz uchun noodatiy nonushta tayyorlash yoki kimningdir tug'ilgan kuniga chiroyli bezak tayyorlash. O'quvchilarga darsdan tashqari vaqtlarda ijod qilish istagi bo'lishi muhimdir. Buni har tomonlama rag'batlantirish kerak. Shuningdek, bolalar o'z ijodiy loyihalarini taqdim etishlari va buning uchun sovg'alar olishlari mumkin bo'lgan ko'plab olimpiadalar va ko'rgazmalar mavjud. Ijodga qiziqishi bor o'quvchilarni aniqlab va ularni yo'naltirish lozim. Bularning barchasi yaxshigina rag'batlantiruvchi omil va ayni paytda mukofot hamdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hamma insonlarda ham ijodiy tafakkur rivojlanmagan. Kimgadir abadiy dvigatelni ixtiro qilishga urinishdan ko'ra kundalik mashg'ulotlar yaqinroq. Texnologiya darsi esa bolalardagi moyilliklarni aniqlash va ularni rivojlantirish uchun kerak. Kimdir yangi, noodatiy narsani sinab ko'rmoqchi va unga bir nechta qiziqarli g'oyalar berib, bu borada yordam berish kerak. Boshqasi allaqachon ixtiro qilingan sifatli buyumlarni yasashni o'rganmoqchi va unga tayyor namunalarni berish hamda mahoratini oshirishga yordam berish kerak. Har bir inson bu borada o'ziga xosdir.

Texnologiya o'qituvchisining vazifasi bu o'ziga xoslikni aniqlash va rivojlanish yo'lini ko'rsatishdir, bu esa oson emas. Maqolada faqat umumiy tavsiyalar va maktabda amaliy mashg'ulotlar bajarish paytidagi ba'zi misollar keltirilgan. Haqiqatda, har qanday o'quvchidan millionlab yangi g'oyalarga ega daho olishning mutlaq retsepti yo'q. Birinchi navbatda shaxsiy yondashuv va vaziyatdan kelib chiqib harakat qilish qobiliyati muhimdir. Ammo, agar hammasi to'g'ri bajarilsa, insoniyat osmonida yana bir yulduzcha porlashi ehtimoli bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Толипов У.К., Дадаев Г.Т. КОЛЛЕКТИВНАЯ ТВОРЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ТЕХНОЛОГИИ ЕЕ ОРГАНИЗАЦИИ // Universum: психология и образование: электрон. научн. журн. 2026. 3(141). URL: <https://7universum.com/ru/psy/archive/item/22145>
2. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik. – Toshkent: TDPU, 2014. – 355 b.
3. Muslimov N.A. Kasbiy ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 220 b.